

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik  
S. Yu.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti**

**Parpi o‘simligining (аконит белоустый ) ildizi va ildizroyalarini  
(Aconitum Leucostomum Worosch) etkazib berish bo‘yicha eng yaxshi  
takliflarni tanlab olishga  
XARID XUJJATLARI**

**Toshkent – 2022**

## MUNDARIJA:

1. Elektron eng yaxshi takliflarni tanlab olish to'g'risida ma'lumot .....	2
2. Kirish .....	6
3. Umumiy qoidalar .....	7
4. Elektron tanlovlarda ishtirok etish uchun Elektron tizimda ro'yxatdan o'tish .....	8
5. Xarid xujjatlari talablarini tushuntirish shartlari .....	8
6. Xarid xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish tartibi va muddatlari .....	9
7. Elektron tanlovda ishtirok etish uchun arizalar taqdim etish .....	9
8. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza mazmuni .....	9
9. Arizani tuzish va taqdim etish tili bo'yicha talablar .....	10
10. Texnik-tijorat taklifi mazmuniga nisbatan talablar .....	10
11. Arizani qaytarib olish .....	10
12. Arizalarni ochish .....	10
13. Arizani kuzrib chiqish, baholash va taqqoslash tartibi .....	12
13. Tanlovlar yakuni .....	12
14. Shartnoma tuzish tartibi .....	12
15. Xujjatlarga ilovalar .....	12

**ELEKTRON ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLAB OLISH TO'G'RSIDA MA'LUMOT  
ИНФОРМАЦИЯ ОБ ЭЛЕКТРОННОМ ОТБОРЕ НАИЛУЧШИХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ**

<p><b>Eng yaxshi takliflarni tanlavb olish predmeti</b> <b>Предмет отбора наилучших предложений</b></p>	<p>Parpi o'simligining (akonit) ildizi va ildizpoyalari (Aconitum Leucostomum Worosch) yetkazib berish. Поставка растительного сырья - корневища с корнями борца белоустого (Аконит белоустый) H Aconitum leucostomum Worosch.</p>
<p><b>Lotning bo'linish imkoniyati</b> <b>Делимость лота</b></p>	<p>- bo'linmaydi - не делимый</p>
<p><b>Xarid qilish reja-grafigi</b> <b>План график закупки</b></p>	<p>2022 yilning III choragi III, kvartal 2022 г.</p>
<p><b>Savdolarni o'tkazish davri (oyi)</b> <b>Период (месяц) проведения торгов</b></p>	<p>2022 yilning III choragi III kvartal 2022г.</p>
<p><b>Moliyalashtirish manbaasi</b> <b>Источник финансирования</b></p>	<p>Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan За счет вне бюджетных средств</p>
<p><b>Etkazib beriladigan xom ashyo miqdori</b> <b>Количество поставляемого сырья</b></p>	<p>15000 kg 15000 кг</p>
<p><b>Хом ашенинг энг юкори нархи:</b> <b>Предельная стоимость сырья:</b></p>	
<p><b>chet el ishtirokchilari uchun</b> <b>иностранных участников</b></p>	<p>145 800,00 AQSh dollari 145 800,00 долл. США;</p>
<p><b>Maxalliy ishtirokchilar</b> <b>отечественных участников</b></p>	<p>145 800,00 AQSh dollari QQS va bojxona xarajatlarini inobatga olgan holda (maxalliy ishtirokchilar o'z takliflarini O'R so'mida, tanlov taklifi taqdim etilgan sanadagi O'R MB tomonidan belgilangan kurs bo'yicha taqdim etadilar) 145 800,00 долл. США с учетом НДС и таможенных расходов (местные поставщики предоставляют предложение в суммах РУз по курсу ЦБ РУз на дату предоставления тендерного предложения)</p>
<p><b>Tanlash taklifini ta'minlash kafolati mablag'i miqdori (zakalat)</b> <b>Сумма гарантии обеспечения выбора наилучших предложений (здаток)</b></p>	<p><b>1 % (1458,00 AQSh dollariga ekvivalent)</b> <b>1 % (эквивалентно 1458,00 долл. США)</b></p>
<p><b>To'lov shartlari</b></p>	<p>1) maxalliy ishtirokchilar uchun – shartnomaning 30% miqdorida bo'nak puli (avans) to'lanadi, mablag'larning qolgan qismi to'lov grafik asosida tovarning xar bir qismi yetkazilgandan va elektron hisob-faktura taqdim etilgandan so'ng. 2) chet ellik ishtirokchilar uchun – tovarning xar bir yetkazilgan qismi uchun 30% miqdorida bo'nak puli (avans) to'lanadi, usha qismning qolgan 70%-ining to'lovi maxsulot yetkazib berilgan va O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi tomonidan maxsulot erkin muomalaga (IM-40) rasmiylashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi. 1) для отечественных участников – авансовый платеж 30 % от общей стоимости контракта, оставшиеся сумма оплачивается на основании графика платежей после поставки товара и предоставления электронной счет фактуры. 2) для иностранных участников – оплата</p>
<p><b>Условия оплаты</b></p>	



	<p>производится за каждую партию поставляемого товара в размере 30% предоплатой от общей суммы поставленного товара, оставшиеся 70% этой партии оплачиваются по факту поставки после таможенного оформления груза на свободное обращение в Республике Узбекистан (ГТД, импорт-40).</p>
<p><b>To'lov valyutasi</b> Валюта платежа</p>	<p>1) Maxalliy ishtirokchilar uchun – O'R so'mi; 2) chet ellik ishtirokchilar uchun – AQSh dollari. 1) Для отечественных участников – Сум РУз; 2) Для иностранных участников – Долл. США.</p>
<p><b>Etkazib berish joyi va shartlari:</b> Место и условия поставки груза:</p>	
<p><b>maxalliy ishtirokchilar uchun</b> для отечественных участников</p>	<p>- <i>maxalliy yetkazib beruvchilar uchun:</i> Buyurtmachining omboriga yetkazib beriladi. Yetkazib berish xarajatlari Yetkazib beruvchining hisobidan koplanadi. Buyurtmachiga tovar topshirilgan sana (hisob-fakturada ko'rsatilgan sana) tovar yetkazib berilgan kun hisoblanadi.</p> <p>- <i>для отечественных поставщиков:</i> поставка товара производится на склад Заказчика. Расходы связанные с поставкой производится за счет Поставщика. Днем поставки считается дата передачи товара Заказчику (дата, указанная на счет-фактуре).</p>
<p><b>chet ellik ishtirokchilar uchun</b> для иностранных участников</p>	<p>Etkazib berish shartlari Inkoterms-2010 ga muvofiq: Tovar CPT Toshkent (INKOTERMS 2010) shartlari asosida yetkazib beriladi. Bojxona organlari tomonidan yuk xatida Tovar belgilangan joyga yetib kelganligi to'g'risida qo'yilgan belgi Tovarni yetkazib berish sanasi hisoblanadi.</p> <p>Условию поставки согласно Инкотермс-2010:Поставка Товара осуществляется на условиях CPT Ташкент (ИНКОТЕРМС 2010). Датой поставки Товара будет считаться дата отметки Таможенных органов в накладной о прибытии Товара в место назначения.</p>
<p><b>Etkazib berish muddati</b> Сроки поставки</p>	
<p><b>maxalliy ishtirokchilar uchun</b> Для отечественных участников</p>	<p>- <i>maxalliy yetkazib beruvchilar uchun:</i> tovar shartnomada belgilangan mablag' umumiy miqdorining 30% miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida yetkazib berilishi lozim.</p> <p>- <i>для отечественных поставщиков:</i> поставка товара должна быть осуществлена в течение 30 дней со дня проведения 30% предоплаты от общей суммы контракта.</p>

<p><b>chet ellik ishtirokchilar uchun</b> <b>Для иностранных участников</b></p>	<p>- <i>chet ellik yetkazib beruvchilar uchun:</i> buyurtma qilingan tovarning har bir qismiga 30% bo'nak to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida. Tovar O'zRga kelib tushgan (O'zR bojxona organlari tomonidan TTYuXda tegishli belgi qo'yilgan) sana tovar yetkazib berilgan sana hisoblanadi.</p> <p>- <i>для иностранных поставщиков:</i> поставка товара должна быть осуществлена в течение 30 дней со дня проведения 30% предоплаты от общей суммы поставуаемой партии товара. Датой поставки считается дата поступления товара в РУз (отметка таможенных органов РУз на ТТН).</p>
<p><b>Танлаш иштирокчиларига</b> <b>нисбатан талаблар</b> <b>Требованиуа,</b> <b>пред'уавлуаемые к участникам по</b> <b>отбору наилучших поставщиков</b></p>	<p>Tanlash savdolarida maxalliy ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilar (ijrochilar) bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan O'zbekiston Respublikasiga ushbu tovarni yetkazib berish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish taqiqlanmagan chet ellik yetkazib beruvchilar (ijrochilar) ham ishtirok etishi mumkin. Barcha ishtirokchilar ishtirok etish uchun belgilangan talablarni bajarishlari, raqobat asosida xarid qilinayotgan ushbu tovarni yetkazib berish tajribasiga ega bo'lishlari lozim.</p> <p>В отборе наилучших поставщиков могут принуат участие как отечественные производители или поставщики (исполнители), так и иностранные производители или поставщики (исполнители), которым законодательством Республики Узбекистан не запрещено участвовать в осуществлении аналогичных поставок в Республику Узбекистан, при условии выполнениуа предуаавлуаемых требований длуа участиуа, а также имеующие опыт поставки соответствующего товара, закупаемого на конкурентной основе.</p>
<p><b>Таклифларни тақдим этиш</b> <b>муддати (5 иш куни кам ва 12 иш</b> <b>кунидан ко'п бо'лмаган муддатда)</b> <b>Срок подачи предложений</b> <b>(не менее 5 рабочих дней и не более</b> <b>12 рабочих дней)</b></p>	<p>7 иш куни мобайнида в течение 7 дней</p>



## 1. Kirish

- 1.1. Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademik S. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti
- 1.2. Buyurtmachi manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulugbek. 77. Telefon: (998 71) 262-59-13, 262-71-09.  
E-mail: ixrv@mail.ru, ixrv.marketing@mail.ru.
- 1.3. Buyurtmachining xisob raqamlari:  
**Maxalliy ishtirokchilar uchun xisob raqam:**  
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi  
x/r: 23 402 000 3001 0000 10 10  
MV VV XKKM Toshkent sh  
MFO: 00014  
INN: 201 122 919  
sh/x: 4001 1086 0262 6970 1510 0043 008  
INN: 200 540 541 OKED: 72190  
QQS to'lovchisining kodi:326020032498

**Chet el ishtirokchilar uchun xisob raqam:** O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi  
G'aznachiligi Manzil: Toshkent shaxri, Istiklol ko'chasi, 29.

X/R:23402840900100001011

O'R FA akademik S. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti

sh/xr:400110840262697015100043001

INN:200540541

### **Buyurtmachi banki:**

CENTRAL BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, TASHKENT

Manzil: Toshkent shaxri, Islom Karimov,6

SWIFT CODE: CBUZUZ22

MFO 00014 INN 201053774

TASHKENT, UZBEKISTAN

### **Korrespondent Bank:**

NATIONAL BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR FOREIGN  
ECONOMIC ACTIVITY

SWIFT CODE: NBFAUZ2X

ACC:20802840300000450007

2. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish predmeti: Parpi o'simligining (akonit) ildizi va ildizpoyalari (Aconitum Leucostomum Worosch) yetkazib berish.
  - 2.1. Bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar tavsifi, hajmi hamda ularga nisbatan qo'yiladigan texnik va sifat talablari **Texnik topshiriqda** ko'rsatilgan (ushbu Xujjatlarga 1-ilova).
  - 2.2. To'lov shartlari va boshqa muhim shartlar ushbu Xujjatlarga ilova qilinayotgan shartnoma loyihasida ko'rsatilgan (ushbu Xujjatlarga 2-ilova).
  - 2.3. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali tovar etkazib berish umumiy muddati 90 ish kuni dan oshmasligi kerak.

### 3. Umumiy qoidalar

3.1. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish uchun ishlab chiqilgan ushbu Xarid xujjatlari Buyurtmachi tomonidan eng yaxshi takliflarni elektron shaklda tanlab olish orqali xaridlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

3.2. Ushbu Xarid xujjatlarida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

**Bo'nak puli (avans) to'lovi** – Buyurtmachi va xarid tadbirlari Ishtirokchisi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda to'lanadigan mablag'lar miqdori, ushbu mablag'lar Operatorning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan komissiya yig'imini o'z ichiga oladi;

**xaridlar to'g'risida shartnoma** – mavjud qonunchilikka muvofiq Buyurtmachi va Yetkazib beruvchi o'rtasida tuzilgan fuqaroviy-xuquqiy shartnoma;

**xaridlar** – ushbu Xarid xujjatlari preambulasida ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarni Buyurtmachi tomonidan xarid qilinishi;

**eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha xarid xujjatlari** – tanlov Ishtirokchisi tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish uchun Ariza tayyorlash uchun taqdim etiladigan, xaridlarni o'tkazish shartlari va tartibini o'z ichiga oluvchi xujjatlar to'plami;

**xarid komissiyasi** – xarid tadbirlari, xarid tadbirlarining yakuni, xarid tanlovlari g'olibini aniqlash (xarid tanlovlari raqobatchilik uslubida o'tkazilgan hollarda Baholash guruhi tavsiyalarini inobatga olgan holda) va shartnoma tuzish xuquqini taqdim etish tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish maqsadida shakllantiriladigan kollegial organ;

**Xarid komissiyasi va/yoki Baholash guruhi a'zosi manfaatlari to'qnashuvi** – Xarid komissiyasi va/yoki Baholash guruhi a'zosining shaxsiy manfaatlari uning Xarid komissiyasi tomonidan qarorlar qabul qilinishi jarayonida xolis ishtirok etishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**davlat xaridlari elektron tizimi operatori (kelgusida matn bo'yicha – Operator)** – davlat xaridlari sub'ektlariga davlat xaridlari elektron tizimida xarid tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tayinlanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxs;

**baholash guruhi** – tanlov Ishtirokchisining takliflari Xarid xujjatlari talablariga mosligini aniqlash va ularni baholash bo'yicha tavsiyalar tayyorlash uchun jalb etish maqsadida Xarid komissiyasi tomonidan tuziladigan kollegial organ;

**shaxsiy kabinet** – davlat xaridlari sub'ektlarining elektron davlat xaridlarida ishtirokini ta'minlash, shuningdek zarur axborotlarni joylashtirish yoki olish uchun mo'ljallangan, maxsus axborot portalidagi shaxsiy sahifa;

**yetkazib beruvchi** – tanlov yakunlariga ko'ra g'olib deb e'lon qilingan va u bilan xarid to'g'risida shartnoma tuzilgan ishtirokchi;

**hisob-kliring palatasi (kelgusida matn bo'yicha – HKP)** – Operatorning shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan ishtirokchilarga ularning bo'nak puli (avans) to'lovini deponentlash va ro'yxatga olish orqali elektron xaridlarda ishtirokini ta'minlovchi tarkibiy bo'linmasi;

**ishlar** – haqiqiy (moddiy) natijaga ega bo'lgan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlar tarkibiga kiruvchi boshqa turdagi faoliyat;

**xizmatlar** – Buyurtmachining ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, moddiy natijaga ega bo'lmagan faoliyat;



**tanlov ishtirokchisi** – xaridlarni bajarish uchun nomzod sifatida xarid tadbirlarida ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti;

**davlat xaridlari elektron tizimi (kelgusida matn bo‘yicha – Elektron tizim)** – elektron davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlari sub’ektlarining hamkorligi, xarid tadbirlari o‘tkazilishini ta‘minlovchi tashkiliy, axborot va texnik qarorlar majmui;

**elektron davlat xaridi** – davlat xaridlari sub’ektlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

#### **4. Elektron tanlovlarda ishtirok etish uchun Elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tish**

4.1. Elektron tanlovlarda ishtirok etish uchun Ishtirokchi portaldagi Ishtirokchining anketa-arizasini elektron shaklda to‘ldirish (klient turi, shaxsiy axborot, kontakt ma‘lumotlari) orqali <https://xarid.uzex.uz> saytida ro‘yxatdan o‘tadi.

4.2. Quyidagi me‘zonlar talablariga mos bo‘lgan Ishtirokchilarga elektron savdolarida ishtirok etishga ruxsat beriladi:

- shartnoma tuzish uchun xuquqiy xaqiligi;
- soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud emasligi;
- ularga nisbatan bankrotlik holati qo‘llanilmayotganligi;
- vijdotsiz ijrochilar Yagona reestrda ular to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud emasligi.

Ishtirokchi anketa-arizada unga nisbatan bankrotlik holati qo‘llanilmaganligi, shuningdek soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Ishtirokchi tomonidan anketa-ariza to‘ldirilgandan so‘ng Elektron tizim orqali vijdotsiz ijrochilar Yagona reestrda Ishtirokchi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud emasligi tekshiriladi.

4.3. Ro‘yxatdan o‘tish jarayoni yakunlangach Ishtirokchi uchun HKPda hisob raqami ochiladi. Ishtirokchilar HKPda ular uchun ochilgan hisob raqamiga bo‘nak puli (avans) to‘lovlarini amalga oshirganlaridan so‘nggina elektron tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi.

4.4. Buyurtmachi va Ishtirokchilar elektron tanlovlarda raqamli elektron imzolaridan (kelgusida matn bo‘yicha – REI) foydalangan holda ishtirok etadilar. Buyurtmachi va Ishtirokchilar tomonidan REIdan foydalanish holati Elektron tizimda tuzilgan shartnomani xaqiqiy deb tan olinishi uchun asos bo‘ladi.

**Norezident Ishtirokchilar tomonidan REI olish imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda, bunday Ishtirokchilar Operatorga ularni Elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron tanlovlarda REIdan foydalanmagan holda ishtirok etish to‘g‘risida murojaat qiladilar.**

Elektron tizim avtomatik tarzda quyidagilarni amalga oshiradi:

- kiritilgan bo‘nak puli (avans) to‘loviga muvofiq har bir lot bo‘yicha elektron xaridlarda ishtirok etish imkoniyatini;
- elektron xaridlarni o‘tkazishni;
- elektron xaridlar natijalariga ko‘ra ijrochini aniqlashni;
- bitimni ro‘yxatga olishni.

#### **5. Xarid xujjatlari talablarini tushuntirish shartlari**

5.1. Elektron tanlov Ishtirokchisi Buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov bo‘yicha takliflar taqdim etish yakuniy sanasiga ikki ish kuni qolgan muddatgacha Xarid xujjatlari talablarini tushuntirishni so‘rab so‘rovnoma yuborish xuquqiga ega. Ushbu so‘rovnoma Buyurtmachi manziliga tanlov bo‘yicha takliflar taqdim etish yakuniy sanasiga ikki ish kuni qolgan muddatgacha kelib tushgan taqdirda, so‘rovnoma kelib tushgan sanadan boshlab ikki



ish kuni mobaynida Buyurtmachi ochiq elektron chat orqali Xarid xujjatlari talablari bo'yicha tushuntirish berishi lozim.

## **6. Xarid xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish tartibi va muddatlari**

- 6.1. Xarid xujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar Buyurtmachi tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etish uchun arizalarni taqdim etish sanasiga 1 (bir) ish kuni qolgan muddatdan kech bo'lmagan muddatgacha kiritiladi. Bunda, eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etish uchun arizalarni taqdim etish muddati 3 (uch) ish kunidan kam bo'lmagan muddatga uzaytiriladi. Xarid xujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda xaridlarda ishtirok etish uchun arizalarni taqdim etishning o'zgartirilgan muddati tanlov Ishtirokchilariga yuboriladi.

## **7. Elektron tanlovda ishtirok etish uchun arizalar taqdim etish**

- 7.1. Tanlov Ishtirokchisi tanlov shartlari bilan batafsil tanishib chiqqanidan so'ng, tizimdagi o'z shaxsiy kabineti orqali tanlovda ishtirok etish uchun Ariza topshiradi, zarur axborotlarni to'ldiradi va tasdiqlovchi xujjatlarni fayl shaklida "Umumiy ma'lumotlar" sahifasida hamda "Mahsulotlar va xizmatlar", "Talablar" bo'limlarida, namunalarga (shablonlarga) muvofiq yuklaydi.
- 7.2. Ishtirokchi tomonidan Elektron tizimning barcha maydonlari to'ldirilgan bo'lishi, u tomonidan biriktirilgan fayllar esa uning takliflarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos bo'lishi lozim.
- 7.3. Ishtirokchilar takliflar bilan birgalikda fayl ko'rinishida eskizlar, rasmlar, fotosuratlar va boshqa xujjatlarni ham joylashtirishlari mumkin.
- 7.4. Elektron tizim Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligi, elektron maydonlarning to'ldirilganligi va biriktirilgan fayllar mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan, to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lgan yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmagan hollarda, tizim Ishtirokchining taklifini, rad etish sabablarini ko'rsatgan holda, rad etadi.
- 7.5. Chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda Elektron tizim tomonidan takliflarni qabul qilish to'xtatiladi.
- 7.6. Ishtirokchining eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etishi bilan bog'liq barcha xarajatlar tanlov Ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladi. Xaridlar qanday yakun topishidan qat'i nazar, Buyurtmachi (Xarid komissiyasi) ushbu xarajatlarni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.
- 7.7. **Tanlov Ishtirokchisi bitta xarid uchun faqat bitta ariza berishi mumkin.** Ishtirokchi tomonidan bitta xarid uchun bittadan ko'p bo'lgan ariza taqdim etilgan hollarda, uning ishtirokidagi barcha arizalar rad etiladi.

## **8. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza mazmuni**

- 8.1. Ariza ushbu Xarid xujjatlarining 3-ilovadagi texnik-tijorat shakliga hamda 4- ilovadagi to'ldirish zarur bo'lgan shakllarni va 5-ilovani o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.
- 8.2. Takliflarni ko'rib chiqish muddati tugan kunga qadar Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan xom ashyo namunasidan laborator taxlillarni o'tkazish va solishtirish maqsadida kamida 1 kg miqdorda buyurtmachining manziliga taqdim etilishi shart.

8.3. Ariza tarkibida noto'g'ri ma'lumotlar keltirilganligi uchun tanlov Ishtirokchisi javob beradi.

## **9. Arizani tuzish va taqdim etish tili bo'yicha talablar**

9.1. Ariza davlat tilida ijro etiladi, tanlov Ishtirokchisida Arizani davlat tilida ijro etish imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, Ariza rus tilida yozilishi mumkin. Ariza tarkibida boshqa tillarda ifodalangan xujjatlar ham bo'lgan hollarda, ushbu xujjatlarga ularning o'zbek yoki rus tilidagi aniq tarjimai ilova qilingan bo'lishi lozim.

## **10. Texnik-tijorat taklifi mazmuniga nisbatan talablar**

10.1. Texnik-tijorat taklifi Ishtirokchi tomonidan quyidagi barcha majburiy rekvizitlarni ko'rsatgan holda taqdim etilishi lozim:

- kompaniyaning nomlanishi;
- yuridik manzili;
- STIR;
- bank rekvizitlari;
- kontakt ma'lumotlari;
- rahbar imzosi, korxonasi muhri.

Taklifning texnik qismi quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim:

- ishlarni bajarish, ko'rsatiladigan xizmatlarni amalga oshirish tartibini;
- Ishtirokchi tomonidan jalb etiladigan personalning malaka darajasi va tajribasi to'g'risida ma'lumotlarni;
- bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan tadbiiq etiladigan standartlarni (GOST, TU, ISO va hokazo);
- kafolat majburiyatlarini.

10.2. Tanlov Ishtirokchisining taklifi Xarid xujjatlari kirish qismida ko'rsatilgan valyutada ifodalangan bo'lishi lozim. Narxlar bo'yicha takliflarni taqqoslashda Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilayotgan takliflarni qabul qilish muddati yakunlangan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan valyuta ayirboshlash kursi tadbiiq etiladi.

## **11. Arizani qaytarib olish**

11.1. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni taqdim etishning oxirgi muddati yakunlangandan so'ng arizalarni qaytarib olishga yo'l qo'yilmaydi.

## **12. Arizalarni ochish**

12.1. Xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda Elektron tizim Komissiya kotibiga Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan Arizalar va elektron xujjatlar bilan tanishishga avtomatik ravishda ruxsat beradi.

12.2. Xarid komissiyasi kotibi tomonidan biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning Ishtirokchi Arizasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligi tekshiriladi.

## **13. Arizalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash tartibi**

13.1. Xarid komissiyasi tomonidan ochilgan elektron konvertlardagi arizalarning ushbu Xarid xujjatlarining 7.1 bandi talablariga muvofiqligi ko'rib chiqiladi.



13.2. Arizalarni baholash arizalarni taqdim etish muddati yakunidan 10 (o'n) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

13.3. Arizalarni ko'rib chiqish jarayonida Xarid komissiyasi quyidagi xuquqlarga ega bo'ladi:

- tanlov Ishtirokchilaridan arizalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash uchun zarur bo'lgan materiallar va tushuntirishlar talab qilib olishga;
- arizalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga aniqliklar kiritish maqsadida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslardan zarur ma'lumotlarni so'rab olishga.
- tanlov komissiyasi ishtirokchining texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadi va tanlov taklifining texnik qismini baholaydi.
- tanlov takliflarining texnik qismini ko'rib chiqish va baholash uchun komissiya tomonidan tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan xom ashyoning bepul namunalarning texnik spetsifikatsiyasiga muvofiq tahlil o'tkazish uchun ishchi (ekspert) guruh tuziladi.
- tanlov ishtirokchisi laboratoriya tahlillari uchun tanlangan namunalar (kamida-1 kg) bilan ekspert komissiyasini ta'minlashi kerak.
- agar tahlil natijalari etkazib berilayotgan mahsulot sifati mijozning talablariga mos kelmasligini ko'rsatsa, unda o'rtacha namunalar buyurtmachi va etkazib beruvchi o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini olish uchun qiyosiy kimyoviy tahlillarni o'tkazish uchun mustaqil ixtisoslashgan organga o'tkaziladi.

13.4. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda Arizani rad etish xuquqiga ega:

- Arizada predmetining Xarid xujjatlarida ko'rsatilgan xarid predmetiga muvofiq bo'lmagan, shu jumladan etkazib berilayotgan xizmatlar hajmi mos bo'lmagan hollarda;
- tanlov Ishtirokchisining texnik-tijorat taklifi Buyurtmachining tanlov me'zonlariga muvofiq bo'lmagan hollarda;
- tanlov Ishtirokchisi tomonidan shartnoma loyahasiga Buyurtmachi qarshi bo'lgan o'zgartirishlar kiritish taklifi bildirilgan hollarda;
- tanlov Ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan Arizada noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi aniqlangan hollarda;
- tanlov Ishtirokchisi Xarid xujjatlarida tanlov Ishtirokchilariga nisbatan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan hollarda;
  - bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar Xarid xujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan hollarda;
- Ishtirokchi imtiyozli soliq rejimi va/yoki moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda ma'lumotlarni ochiqlash va taqdim etish imkoni ko'zda tutilmagan davlatlar yoki hududlarda (offshor hududlar) ro'yxatdan o'tgan, shuningdek offshor hududlarda (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020 yil 12 oktyabrda 2467-3-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Ro'yxatga muvofiq) joylashgan banklarda hisob raqamlariga ega bo'lgan hollarda;
  - Ishtirokchi tomonidan sog'lom raqobatga qarshi harakatlar olib borilayotgani yoki tanlov Ishtirokchisi hamda Buyurtmachi va/yoki u bilan affillangan shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari mavjudligi to'g'risida axborot mavjud bo'lgan hollarda;
  - tanlovda ta'sischilari bitta yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lgan ikki va undan ko'p kompaniyalar ishtirok etgan hollarda;
- bitta xarid uchun bittadan ko'p ariza taqdim etilgan hollarda;



- qayta tashkillashtirish, yo‘q qilish yoki bankrot holatida bo‘lgan Ishtirokchi tanlovda ishtirok etgan hollarda;
- eng yaxshi takliflarni tanlab olish uchun zarur xujjatlar belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan hollarda;
- tanlov Ishtirokchisi tomonidan O‘simlik moddalari kimyosi instituti bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar lozim darajada bajarilmagan hollarda;
- tanlovda O‘simlik moddalari kimyosi instituti bilan sud nizolari holatida bo‘lgan Ishtirokchi ishtirok etayotgan hollarda;
- tanlovda noinsof etkazib beruvchilar Yagona reestrda ro‘yxatda bo‘lgan Ishtirokchi ishtirok etayotgan hollarda.

13.5. Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan takliflar nomuvofiqligi to‘g‘risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilinishiga asos bo‘lgan sabablarni ko‘rsatgan holda, ushbu qaror qabul qilingan kunning o‘zida Ishtirokchining shaxsiy kabinetida aks ettiriladi.

#### **14. Tanlovlar yakuni**

- 14.1. Eng yaxshi takliflarni tanlab olish tanlovi yakunlari Xarid komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
- 14.2. Xarid komissiyasi xaridlarda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalarni tasdiqlangan baholash me‘zonlariga (6-ilova) qat‘iy muvofiq ravishda baholaydi.
- 14.3. Xarid komissiyasi tomonidan tanlov bo‘yicha Xarid xujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq bo‘lgan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ikkitadan kam bo‘lmagan takliflar tanlab olinganda eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo‘yicha tanlov o‘tkazildi deb tan olinadi.
- 14.4. Bayonnomas rasmiylashtirilgan kunning o‘zida davlat xaridlari elektron portalida chop etiladi, tanlov yakunlari bo‘yicha da‘volar kelib tushmagan taqdirda, 2 (ikki) ish kuni mobaynida tanlov g‘olibiga uning arizasi eng yaxshi takliflarni tanlab olish tanlovida g‘olib bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabar yuboriladi.

#### **15. Shartnoma tuzish tartibi**

- 15.1. O‘tkazilgan elektron tanlov yakunlariga ko‘ra Xarid xujjatlarida ko‘rsatilgan shartnoma loyihasi 5-ilovaga muvofiq, tanlov g‘olibi tomonidan taklif etilgan narx ko‘rsatilgan holda shartnoma tuziladi.
- 15.2. Xaridlar to‘g‘risidagi shartnoma xaridlar yakuni bo‘yicha rasmiylashtirilgan bayonnomada ko‘rsatilgan muddatlarda, lekin ushbu bayonnomas imzolangan sanadan 10 (o‘n) kalendar kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda tuziladi.
- 15.3. Shartnoma loyihasiga shartnomaning asosiy shartlari o‘zgarishiga olib keluvchi, xususan shartnoma predmeti, ishlar, xizmatlar hajmi, sifati, narxlari, ularni bajarish muddatlari va to‘lovlarni amalga oshirish tartibi bilan bog‘liq, o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Tomonlarning bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar spesifikasi bilan bog‘liq xuquq va majburiyatlari shartnomaga alohida ilovada muvofiqlashtirilishi mumkin.

#### **16. Xujjatlarga ilovalar**

16.1. Xarid xujjatlariga barcha ilovalar xujjatlarning tarkibiy va ajralmas qismi hisoblanadi. Xarid xujjatlarining boshqa shartlarini inobatga olmagan holda ilovalarda bayon etilgan shartlarni qo‘llash va/yoki ularni talqin qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**1-ilova** – Texnik topshiriq;

**2-ilova** – Shartnoma loyihasi;

**3-ilova** – Texnik taklifning namunaviy shakli;

**4-ilova** – Taqdim etilishi majburiy bo‘lgan shakllar va xujjatlar;



**5-ilova** – Solishtirma jadval;

**6-ilova** – Tanlov ishtirokchilari takliflarini baholash me'zonlari.

Kelishilgan:

**Komissiya raisi:**

Strategik ishlanmalarni ishlab chiqish

va tadbiq etish bo'yicha direktor o'rinbosari

  
N.D. Abdullaev

**Komissiya raisining o'rinbosari:**

Ishlab chiqarish va ilmiy texnologiyalarni

tadbiq etish bo'yicha direktor o'rinbosari

  
I.B. Payziev

**Komissiya a'zolari:**

Bosh iqtisodchi

  
M.M. Akramova

Yuriskonsult

  
N.Z. Kurbanova

Tadqiqotlarning fizikaviy uslublari  
laboratoriyasi, katta ilmiy xodimi

  
R.Ya. Oqmanov

IRMB boshlig'i, Xarid komissiyasi kotibi

  
G.A. Abbasova

☎ 71-262-73-48

Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha  
Xarid xujjatlariga  
**2-ilova**

*ISHTIROKCHINING RASMIY BLANKIDA*

№: \_\_\_\_\_  
Sana: \_\_\_\_\_

(ishlar/xizmatlar nomlanishi ko'rsatilsin) **etkazib berish bo'yicha**  
**TEXNIK –TIJORAT TAKLIF**

Tanlov Ishtirokchining nomlanishi: \_\_\_\_\_

Xaqiqiy manzili: \_\_\_\_\_

Soliq to'lovchining identifikatsion raqami: \_\_\_\_\_

Elektron pochta: \_\_\_\_\_

Kontakt raqami: \_\_\_\_\_

Xarid xujjatlarini o'rganib chiqqan holda, quyidagi shartlar asosida ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatishni taklif etamiz:

*- barcha maydonlar to'ldirilishi shart*

Ishlar/xizmatlar nomlanishi	
Ishlar/xizmatlar hajmi	
Ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatish muddatlari	
Ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatish joyi	
Taqdim etiladigan kafolatlar hajmi va/yoki muddatlari	
To'lov shartlari <sup>1</sup>	
Xarid predmeti bo'yicha, texnik topshiriqqa muvofiq bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning to'liq hajmini o'z ichiga olgan, ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatish tadbirlarining batafsil texnik bayoni	

<sup>1</sup>Xarid xujjatlariga muvofiq;

**Rahbarning F.I.O. va imzosi**

**M.O'.**



**ПЕРЕЧЕНЬ**  
обязательных форм и документов,  
необходимых для участия в отборе наилучших предложений

- a) Заявка на участие в отборе наилучших предложений (форма №1 Приложения №4);
- b) Свидетельство или справка о государственной регистрации (перерегистрации) юридического лица;
- c) Заявление Участника отбора по недопущению коррупционных проявлений (форма №2);
- d) Сведения о конфликте интересов (форма №3);
- e) Информация об опыте выполнения / оказания аналогичных работ/услуг (форма №4)
- f) Копия устава участника в отборе наилучших предложений
- g) Справка об отсутствии задолженности от Государственных налогов и обязательных платежей.
- h) Сравнительная таблица технических характеристик на предлагаемый товар с техническим заданием Приложение №5.
  - i) Справка об отсутствии записи о них в Едином реестре недобросовестных исполнителей.
  - j) Образец сырья не менее 1 кг для лабораторного анализа с целью сравнения определения основных показателей.

## ISHTIROKCHINING RASMIY BLANKIDA

№: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

O'R FA O'MKI  
Xarid komissiyasigaEng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan  
o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etish uchun  
ARIZA

Tanlov Ishtirokchisining nomlanishi eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etish uchun taqdim etilayotgan ushbu Ariza (kelgusida matn bo'yicha – Ariza) orqali xarid predmetining nomlanishi eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda tanlov Ishtirokchisi sifatida ishtirok etish uchun o'z roziligini va yuqorida qayd etilgan xarid bo'yicha ishlab chiqilgan Xarid xujjatlarida ko'zda tutilgan talablar va shartlarga muvofiq ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatishga tayyor ekanligini bildiradi.

Tanlov Ishtirokchisi Xarid xujjatlari bilan tanishib chiqqanligi va Buyurtmachiga o'zining xuquqiy holati, malaka darajasi, ishlar/xizmatlar sifati va boshqa tavsiflari bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etganligi, u mualliflik va qo'shimcha xuquqlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa cheklolarga rioya etishi lozimligi bo'yicha javobgarlik mavjudligi to'g'risida xabari borligini tasdiqlaydi.

Tanlov Ishtirokchisi eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan o'tkaziladigan xaridlarda ishtirok etish uchun taqdim etilayotgan ushbu Ariza va unga ilova qilinayotgan boshqa xujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ilova qilinayotgan xujjatlar ro'yxati:

t/r	Buyurtmachi tomonidan so'ralgan hujjatlar	Tanlov Ishtirokchisining tasdiqlovchi xujjatlari	Varaqalar soni

Ushbu Ariza u taqdim etilgan sanadan boshlab **60 (oltmish) kalendar kuni** mobaynida amal qiladi.

Xaridlar to'g'risida shartnoma tuzilgunga qadar ushbu Ariza va ushbu Ariza g'olib deb tan olinganligi to'g'risidagi Sizning xabarnomangiz bizning o'rtamizda bajarilishi majbur bo'lgan shartnoma vazifasini o'taydi.

To'ldirilgan sana: \_\_\_\_\_

Rahbarning F.I.O. va imzosi

M.O'.

3-ilovaning 2-shakli



№: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**O'R FA O'MKI**  
Xarid komissiyasiga

**Korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi  
ARIZA**

Biz ushbu orqali shuni ta'kidlaymiz va o'z zimmamizga shunday majburiyatni olamizki, biz, bizdan tashqari, shu jumladan bizning nazoratimizda bo'lgan tashkilotlar va affillangan tuzilmalardagi, bizning nomimizdan tegishli vakolatlarga ega bo'lgan holda yoki bizning ruxsatimiz yoxud roziligimiz bilan faoliyat yurituvchi, yoki biz tomonimizdan jalb etilgan bizning direktorlarimiz, xodimlarimiz, agentlarimiz, konsorsium bo'yicha hamkorlarimiz, shuningdek pudratchilarimiz, etkazib beruvchilarimiz, qo'shimcha etkazib beruvchilarimiz, konsessionerlarimiz, maslahatchilarimiz, qo'shimcha maslahatchilarimiz, shundaylar mavjud bo'lgan holda, O'R FA O'MKI da o'tkazilayotgan tanlov bilan bog'liq yoki O'R FA O'MKI bilan tuzilgan shartnomalar asosida ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki mahsulotlar etkazib berish paytida quyida ko'rsatilgan Taqiqlangan harakatlarga jalb etilmagan va jalb etilmaydi. Biz o'z zimmamizga tashkilotimizdagi ushbu Arizaning bajarilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan har qanday shaxsga ma'lum bo'lgan bunday Taqiqlangan harakatlar bilan bog'liq har qanday holat to'g'risida sizni xabardor qilish majburiyatini olamiz.

Biz quyidagi *Taqiqlangan harakatlarga yo'l qo'ymasligimizni* ta'kidlaymiz va bu xaqida o'z zimmamizga majburiyat olamiz:

1) Majburlash: bir tomonning harakatlariga notug'ri ta'sir ko'rsatish maqsadida biron bir tomon yoki uning mulkiga bevosita yoki bilvosita zarar etkazish yoki tahdid qilish;

2) Til biriktirish: ikki yoki undan ortiq tomonlarning nomaqbul maqsadlarga erishish, shu jumladan boshqa tomonning harakatlariga noto'g'ri ta'sir ko'rsatish uchun kelishuvi;

3) Korrupsiya: boshqa tomonning harakatlariga notug'ri ta'sir ko'rsatish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qimmatli narsalarni taklif qilish, berish, olish yoki so'rash;

4) Firibgarlik - moliyaviy yoki boshqa manfaatlar uchun yoki majburiyatlarni bajarishdan qochish uchun tomonni bila turib chalg'ituvchi yoki chalg'itishga urinish, shu jumladan faktlarni noto'g'ri ko'rsatish yoki noto'g'ri ma'lumot berish;

5) O'MKI mablag'laridan noto'g'ri foydalanish, qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan;

6) O'g'irlik: boshqa shaxsga tegishli bo'lgan mulkni o'zlashtirish

**Rahbarning F.I.O. va imzosi**

**M.O'.**

### Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar

*Ushbu orqali va quyidagi imzosi bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha tanlov Ishtirokchisi:*

1) *Tanlov Ishtirokchisi va Buyurtmachi<sup>1</sup>, Buyurtmachi ishchilari va tanlov Ishtirokchisi ishchilari, tanlovning bir Ishtirokchisi ishchilari va tanlovning boshqa Ishtirokchisi ishchilari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi vaziyatlar, Buyurtmachi ishchilari va Buyurtmachi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki davlat organlari va tanlov Ishtirokchisi o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini;*

2) *yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan:*

- *xaridlarda tanlov Ishtirokchisi uchun u bilan ish munosabatlarini ushlab turish manfaatli bo'lgan uchinchi shaxs bilan moliyaviy manfaatlari, yoki ushbu shaxs tomonidan tanlov Ishtirokchisiga Buyurtmachi manfaatlariga zarar etazgan holda imkoniyatlar taqdim etish holatlari;*

- *tanlov Ishtirokchisi rahbari, hamkori va tanlov Ishtirokchisining har qanday boshqa ishchisining Buyurtmachi bilan mehnat munosabatlari (yondoshlik asosida, fuqaroviy-xuquqiy shartnoma asosida ishlash va hokazo);*

- *tanlov Ishtirokchisining parallel manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keltirishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan vakilligi (tanlov Ishtirokchisining hozirgi kundagi mavjud mijozi vakilligi Buyurtmachi manfaatlariga mos bo'lmagan yoki tanlov Ishtirokchisining hozirgi kundagi mavjud bir yoki undan ko'p mijozi vakilligi tanlov Ishtirokchisining Buyurtmachi oldidagi majburiyatlari buzilishi xavfi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda parallel manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin);*

- *Buyurtmachi ishchisi tomonidan shaxsan qabul qilinishi lozim bo'lgan yoki Buyurtmachi ishchisi qabul qilinishida ishtirok etishi lozim bo'lgan qarorda yoxud Buyurtmachi ishchisi xaridlar doirasida o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi jarayonida amalga oshirishi lozim bo'lgan harakatlarda o'zining yoki Buyurtmachi/tanlov Ishtirokchisi bilan bog'liq shaxslarning har qanday ko'rinishdagi manfaatlari;*

- *Buyurtmachi ishchisining tanlov Ishtirokchisi bilan mehnat va boshqa munosabatlari, shuningdek tanlov Ishtirokchisidan xarid bo'yicha moddiy manfaat, foyda yoxud afzallik olganligi yoki olish niyati borligi;*

- *Buyurtmachi ishchisi bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning tanlov Ishtirokchisi bilan munosabatlari, shuningdek tanlov Ishtirokchisidan moddiy manfaat, foyda yoxud afzallik olganligi yoki olish niyati borligi;*

- *tanlov Ishtirokchisiga ma'lum bo'lgan boshqa to'qnashuvli vaziyatlar mavjud emasligini.*

*Izoh\*: (zarurat bo'lganda) manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi vaziyatlar mavjud emasligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotni ochiqlash.*

3) *ushbu shaklni imzolagan shaxs tanlov Ishtirokchisi nomidan ushbu shaklni imzolash vakolatiga ega ekanligini, bu orqali quyidagi hollarda Shartnomada qayd etilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi va undagi shartlarga rozi ekanligini, ularni inobatga olgan holda, lekin faqat*



*ular bilan cheklanib qolmasligini:*

- tanlov Ishtirokchisi tomonidan ataylab yoki o'zi bilmagan holda manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi to'g'risida yolg'on ma'lumotlar taqdim etganligi uchun javobgarlikka tortilishini;

- tanlov Ishtirokchisi zimmasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday voqea-hodisalar va (yoki) faktlar to'g'risida Buyurtmachi rahbariyatini zudlik bilan xabardor qilish majburiyati mavjudligini;

- tanlov Ishtirokchisi xarid predmetidan kelib chiqqan holda 3 (uch) yildan kam bo'lmagan muddatda (*xaridlar spesifikasiga muvofiq Shartnomada maxfiylikni saqlash muddati yanada ko'proq belgilangan hollar bundan mustasno*) Buyurtmachiga qarshi uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida xizmat qilmasligini;

- har qanday asosdagi manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda, jumladan tanlov Ishtirokchisining faoliyati miqiyosi yoki uning obro'sidan qat'i nazar, tanlov Ishtirokchisi javobgarlikdan bo'yin tovlamasligini;

- tanlov Ishtirokchisi tomonidan Buyurtmachi, O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan manfaatlar to'qnashuvi faktlari mavjud emasligini hech qanday shartlarsiz tasdiqlanishini;

- tanlov Ishtirokchisining manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi natijasida Buyurtmachiga etkazilgan zarar (aniq zarar va qo'ldan chiqarilgan foyda) uchun Buyurtmachi oldida to'liq moddiy javobgar ekanligini;

- tanlov Ishtirokchisining Buyurtmachi oldida Buyurtmachidan qabul qilib olingan barcha ma'lumotlarni sir saqlash, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish to'xtatilgan yoki Shartnoma buzilgan hollarda etkazilgan ma'lumotlarni qaytarish va/yoki yo'q qilish majburiyati (bunday majburiyat maxfiylik bo'yicha alohida Shartnoma/kelishuvda ko'zda tutilishi mumkin) mavjudligini;

- tanlov Ishtirokchisining vakilligi parallel manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hollarda Buyurtmachi manfaatlari yo'lida harakatlar amalga oshirmasligini;

- tanlov Ishtirokchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi to'g'risida tanlov Ishtirokchisi tomonidan berilgan kafolatlar buzilganligi uchun Shartnomada ko'zda tutilgan jarimalar shaklida javobgarlik mavjudligini;

- Buyurtmachining, u tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanganda, Buyurtmachiga nisbatan jarima sanksiyalari qo'llanilmagan va uni Shartnomani muddatidan avval buzganligi uchun har qanday javobgarlikdan yoki zarardan ozod qilgan va (yoki) saqlagan holda, Shartnomani muddatidan oldin buzish xuquqi mavjudligini;

- tanlov Ishtirokchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgan hollarda, Buyurtmachida Shartnoma majburiyatlarini bajarishni bir tomonlama rad etish va etkazilgan zararni qoplashni talab qilish xuquqi mavjudligini;

- Buyurtmachining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday manbaalarda, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalarda, tanlov Ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatish va yig'ish xuquqi mavjudligini;

- Tanlov Ishtirokchisining Buyurtmachi Tanlov Ishtirokchisi to'g'risida aniq ma'lumotlar olish maqsadida tanlov Ishtirokchisi a'zosi bo'lgan davlat organlari va professional birlashmalarga yozma ravishda murojaat qilishiga va (yoki) professional birlashma tomonidan Buyurtmachi tanlov Ishtirokchisining o'z majburiyatlari, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar, biznesni yuritish etikasini buzganligi holatlari to'g'risida xabar qilinishiga roziligini. Tanlov Ishtirokchisi tomonidan rad etilgan holatlar xuquqiy asoslangan bo'lishi lozim. Rad etish holatlari xuquqiy asoslanmagan, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida shubhalar mavjud bo'lgan hollarda, Buyurtmachi

bunday holatlarni tanlov Ishtirokchisi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligining tasdig'i o'rnida qabul qilish xuquqiga ega ekanligini;

• Tanlov Ishtirokchisi yoki uning qonuniy vakilining tanlov Ishtirokchisi va ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatishga jalb qilingan tanlov Ishtirokchisi ishchilarining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanishga roziligini tasdiqlaydi.

**Rahbarning F.I.O. va imzosi**

**M.O'.**



**Xuddi shunday ishlarni bajarish/xizmatlar ko'rsatish bo'yicha oxirgi 2 yildagi tajriba to'g'risida ma'lumotlar**

t/r	Loyiha nomlanishi	Bajarilgan ishlar/ko'rsatilgan xizmatlarning qisqacha bayoni	Buyurtmachi	Buyurtmachining manzili va kontakt raqami	Bajarilgan ishlar/ko'rsatilgan xizmatlarni etkazib berilgan mamlakat	Ishlar/xizmatlarning xajmi

**Rahbarning F.I.O. va imzosi**

**M.O'.**

**Taklif etilayotgan tovar texnik tavsiflarining  
texnik topshiriq bilan qiyosiy jadvali**

T/r	Etkazib berilayotgan tovarning texnik topshiriqqa muvofiq texnik tavsiflari nomlanishlari	Texnik topshiriqqa muvofiq talab etilayotgan texnik tavsiflar	Taklif etilayotgan texnik tavsiflar
1	<b>Nomlanishi</b>	Parpi o'simligining (akonit) ildizi va ildizpoyalari (Aconitum Leucostomum Worosch) etkazib berish	
2	<b>Miqdori:</b>	15 000 kg	
3	<b>Umumiy talablar:</b>		
3.1.	Lappakonitinga o'tkazib hisobanganda allapininning miqdoriy ko'rsatkichi	0,9%dan kam emas	
3.2.	namlik	14%dan ko'p emas	
3.3.	umumiy zoly	15% dan ko'p emas	
3.4.	10%li xlorvodorod kislotasi aralashmasida erimaydigan zoly	5% dan ko'p emas	
3.5.	listev i ostatkov stebley	3% dan ko'p emas	
3.6.	organik aralashmalar	1% dan ko'p emas	
3.7.	mineral aralashmalar	6% dan ko'p emas	
4	<b>Tashqi alomatlari:</b>		
4.1.	partikuliruyushix ildizpoya ildizi bilan bo'laklari, idizlari bo'laklari, kam hollarda butun, uzunligi	15 (25) sm gacha	
4.2.	yo'g'onligi	3(5) sm gacha	
4.3.	tik ildizpoyalar, uzunligi	5 sm gacha	
4.4.	novdalar qoldiqlari, uzunligi	3 sm gacha	
4.5.	ildizga ulanuvchi novdalar, uzunligi	10 sm gacha	
4.6.	ildizpoya va ildizlar tuzilishi	Ildizpoya va ildizlar partikulyatsiya natijasida hosil bo'ladigan katakliperforirovanny	



		(katakli) tuzilishga ega. Katakalar (orasi ochiq tuynuklar) ildizlar asosida o'lik kurtaklar o'rnida bir-birining ustida joylashgan.	
4.7.	tashqi ko'rinishi	engil, nozik, sindirilganda zirapchali	
4.8.	rangi	jigarrang yoki qora-jigarrang, sindirilganda oqish-kulrangdan kulranggacha	
4.9.	hidi	kuchsiz, o'ziga xos	
5	<b>Yaroqlilik muddati:</b>	3 yil	
6	<b>Upakovka o'lchamlari</b>	Xom-ashyo 10, 20,40 kg netto og'irlikda polipropilen yoki GOST 30090-93 ga muvofiq matodan ishlangan xaltalarga yoki 12 kg netto og'irlikda matodan ishlangan qoplarga joylashtirilsin	
7	<b>Transportirovka qilish</b>	shartnoma asosida	
8	<b>Saqlash</b>	Quruq, havo yaxshi aylanadigan, quyosh nurlari to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan xonada, 25°Sdan yuqori bo'lmagan haroratda	

Eng yaxshi takliflarni tanlab olish  
bo'yicha  
Xarid xujjatlariga  
6-ilova

**Ishtirokchilarining texnik va tijorat takliflarini baholash va taqqoslash usullarini  
hamda mezonlarini**

**I bo'lim: Ishtirokchilar arizalarida talab etilgan ma'lumotlar:**

№	Ro'yxat	1 ishtirokchi	2 ishtirokchi
		Taqqim etilgan / Taqqim etilmagan	
1	Eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirok etish uchun tanlash hujjatida 3-ilova bo'yicha 1,2,3 va 4 shakllarning mavjudligi va to'liq rasmiylashtirilganligi;		
2	Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi) to'g'risidagi guvohnoma yoki ma'lumotnoma;		
3	Eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirok etayotgan tashkilotning Nizomidan nusxasi;		
4	Solishtirma jadval 5-ilova -allapinin miqdori lappakonitinga qayta hisoblanganda 0,9% dan kam bo'lmasligi; -namligi (butun va maydalangan xom ashyo) – 14% dan ko'p bo'lmasligi; - mineral qo'shimchalar (tuproq, tosh bo'laklari) – 6% dan ko'p bo'lmasligi.		
5	Etkazib beriladigan xom ashyo namunasi- kamida 1 kg		
6	Tashkilotning qarzdorligi mavjud bo'lgan yoki bo'lmaganligi to'g'risida Davlat Soliq qo'mitasidan ma'lumotnoma;		
7	Insofsiz tadbirkorlar ro'yxatida bor yoki yukligi to'g'risida ma'lumot takdim etish;		
8	Tashkilotni tashkil etilgani bo'yicha kamida 2 yil bo'lishi;		

Tanlov komissiyasi ishtirokchining texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar va boshqa resurslari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadi va tanlov taklifining texnik qismini baholaydi.

Xarid komissiyasi baholash mezonlarining I-bo'limining istalgan bandi bo'yicha ko'rsatilgan hujjatlar taqqim etilmagan taqdirda, elektron tanlov ishtirokchisining taklifini rad etishga haqli.

II-bo'lim. Tanlov ishtirokchisining texnik mezonlari:



	<b>Tavsif</b>	<b>1 ishtirokchi</b>	<b>2 ishtirokchi</b>
	Xarid predmeti bo'yicha, texnik topshiriqqa muvofiqligi (2-ilova)		

Tanlov takliflarining texnik qismini ko'rib chiqish va baholash uchun komissiya tomonidan tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan xom ashyoning bepul namunalarning texnik spetsifikatsiyasiga muvofiq tahlil o'tkazish uchun ishchi (Ekspert) guruh tuziladi.

Tanlov ishtirokchisi laboratoriya tahlillari uchun tanlangan namunalar (kamida-1 kg) bilan ekspert komissiyasini ta'minlashi kerak.

